


## 2022- yilning yanvar-iyunida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 24 927,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

|  | <i>Mird. so'm</i> |                  | <i>O'sish sur'atlari,<br/>o'tgan yilning<br/>mos davriga<br/>nisbatan % da</i> |
|--|-------------------|------------------|--|
|  | <i>2021- yil</i>  | <i>2022- yil</i> |  |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>21 397,0</b>   | <b>24 927,6</b>  | <b>105,1</b>   |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                   |                  |  |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 20 860,7          | 24 148,5         | 104,9  |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 536,3             | 779,1            | 113,7  |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>20 860,7</b>   | <b>24 148,5</b>  | <b>104,9</b>   |
| qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik xo'jaligi            | 7 467,1           | 7 821,7          | 102,1  |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>          | <b>4 791,8</b>    | <b>6 160,5</b>   | <b>108,6</b>   |
| sanoat   | 3 275,3           | 4 366,0          | 108,7  |
| qurilish   | 1 516,5           | 1 794,5          | 108,4  |
| <b>xizmatlar</b>                                       | <b>8 601,8</b>    | <b>10 166,3</b>  | <b>105,2</b>   |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 1 578,1           | 1 915,9          | 108,4  |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 1 555,0           | 1 814,3          | 110,8  |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 5 468,7           | 6 436,1          | 102,6  |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 154,5 ming soʻnni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.

### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʼsish surʼatlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʼshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligining YAHMning tarmoqlar boʼyicha tarkibidagi ulushi 32,4 % ni, sanoat tarmogʼi 18,1 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 42,1 % ni tashkil qildi.


**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

|   | <b>2021- yil</b> | <b>2022- yil</b> |
|---|------------------|------------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                                  | <b>100,0</b>     | <b>100,0</b>     |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |                  |                  |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo’shilgan qiymati             | 97,5             | 96,9             |
| mahsulotlarga sof soliqlar                            | 2,5              | 3,1              |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo’shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b>     | <b>100,0</b>     |
| <b>qishloq, o’rmon<br/>va baliqchilik xo’jaligi</b>   | <b>35,8</b>      | <b>32,4</b>      |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo’shgan holda)</b>         | <b>23,0</b>      | <b>25,5</b>      |
| sanoat  | 15,7             | 18,1             |
| qurilish  | 7,3              | 7,4              |
| <b>xizmatlar</b>                                      | <b>41,2</b>      | <b>42,1</b>      |
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo‘yicha xizmatlar   | 7,6              | 7,9              |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa               | 7,5              | 7,5              |
| boshqa xizmat tarmoqlari                              | 26,1             | 26,7             |

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



2021- yil




2022- yil

Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga soʻf soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,4 %), sanoatda – 108,7 % (18,1 %), qurilishda – 108,4 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 105,2 % ni (42,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,4 % (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,8 % (7,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,6 % dan (26,7 %) iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,01 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,8 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,1 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 5,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi

**2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'satkichlari sanoat sohasida -122,7 % va xizmatlar sohasida – 112,4 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)**

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 67,4 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 70,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

